



PAPER

JADID MA'RIFATPARVARLARI TA'LIMIY QARASHLARI ASOSIDA TALABALARDA MILLIY IDENTITETNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sharofiddinov Maxmudjon Mashrabjon o'g'li^{1,*}

¹Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi

* sharofiddinov@gmail.com

Abstract

Ushbu maqola talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning pedagogik asoslarini, xususan, jadid ma'rifatparvarlari ta'limiy qarashlari asosida modelini yaratishdan iborat.

Key words: milliy identitet, kognitiv, hissiy-emotsional va xulq-atvor, kontseptual-metodologik blok, mazmunli-protsessual blok va natija-dagnostik blok, etnopedagogik tavsif.

Kirish

XX asrning boshlarida Turkiston hududida yangi ta'lim yondashuvlari paydo bo'ldi, bu esa jadidchilar va marifatparvarlarning pedagogik goyalariga asoslangan. Jadidchilar, xususan, ilm-fan va ma'rifatni milliy taraqqiyotning asosiy omili sifatida ko'rib, o'zining pedagogik qarashlari va goyalari bilan nafaqat ta'lim tizimini, balki jamiyatni ham o'zgartirishni maqsad qilgan edilar. Ularning pedagogik qarashlari milliy ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlarni olib keldi.

Jadidchilar ta'limni xalqni taraqqiyotga

erishishning eng muhim vositasi deb bilganlar. Ular an'anaviy, ortiqcha diniy va siyosiy to'siqlarga qarshi chiqib, ilm-fan va ma'rifatni keng tarqatishni asosiy vazifa deb hisoblashgan. Jadidlarning pedagogik g'oyalari va qarashlari, ularning ta'limda amalga oshirishni xohlagan o'zgarishlarini aks ettirgan. Jadidchilar, xususan, ta'limni insonning ruhiy va ma'naviy taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi deb bilganlar. Ular yoshlarni zamonaviy bilim bilan ta'minlashni, an'anaviy diniy bilimlardan tashqari, ilmiy va amaliy bilimlarni o'rgatishni maqsad qilganlar. Ularning ta'limga bo'lgan yondashuvi,

Compiled on: April 15, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

milliy madaniyatni asrab-avaylash va uni rivojlantirishga yo'naltirilgan edi. Jadidchilar va marifatparvarlarning ta'limga bo'lgan yangi yondashuvi, milliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ular xalqning tarbiyasi va ta'limida yangi usullarni qo'llashni boshladilar.

Bu yondashuvlar faqat ilmiy ma'rifat bilan chegaralanmay, balki milliy qadriyatlar, tarix va madaniyatni hurmat qilishga, milliy ongini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jadid pedagogikasi, umuman olganda, o'zining zamonaviy, ilmiy, va amaliy yondashuvlari bilan ajralib turadi. Jadidchilar eski ta'lim tizimini tanqid qilib, uni zamon talablariga moslashtirishga intilishdi. Ular o'quvchilarni faqat kitoblarni yod olishga o'rgatishdan ko'ra, ularni mustaqil fikrlashga, tanqidiy qarashlarga, va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga o'rgatishga intildilar.

Asosiy qism

Milliy identitetni rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun quyidagi ishlar bajarildi: modelning asosiy parametrlari aniqlab olindi, birinchi bo'lib tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti tanlandi; modelni shakllantirish usullari aniqlandi (loyihalash, standartlashtirish); ba'shorat qilish usullarining asoslari ishlab chiqildi va talabalarda milliy identitetni rivojlantirish modelini yaratishda ulardan keng foydalanildi. Talabalarda milliy identitetni shakllantirish modeli jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy qarashlari, milliy meros va qadriyatlarni chuqur o'rganishga asoslangan matnlarni tanlash va taqdim etishni taqozo etadi. Bu talabalarining milliy o'ziga xoslikka doir kognitiv, hissiy-emotsional va xulq-atvor tarkibiy qismlarining ijobiy dinamikasini olishga imkon beradigan g'oyaga asoslanadi.

Ushbu model maqsadli, kontseptual-metodologik blok, mazmunli-jarayonli blok va natija-dagnostik bloklar bilan ifodalanadi. Keyingi bo'limlarda ushbu modelning har bir komponenti chuqur tahlil qilinib, uning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati batafsil yoritib beriladi. Modelning maqsadli blokiga tajriba-sinov ishining maqsadi (talabalarda milliy identitetni jadid ma'rifatparvarlari qarashlari asosida rivojlantirish) va uni amalga oshirishga imkon beradigan vazifalar kiritildi. Kontseptual-metodologik

blokda modelning nazariy asoslarini, unga asos bo'luvchi tamoyillarni, Jadid ma'rifatparvarlarining ta'limiy qarashlarini hamda milliy identitetning kontseptual mazmunini o'z ichiga oladi. Mazmunli-jarayonli blokda talabalarining milliy g'ururini oshirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy tamoyillari (jadidlarning ma'rifiy g'oyalari asosida), milliy identitetni rivojlantirish uchun axborot asosini tashkil etuvchi o'quv materiallarining tarkibi (tarixiy hujjatlar, adabiy asarlar, san'at namunalari, jadidlarning asarlari) va talabalarining milliy qadriyatlar ta'limi jarayonining besh bosqichini metodik ta'minlash kiritildi. Natija blokida esa talabalarining milliy identiteti va uni tarbiyalash darajasi bilan tavsiflandi.

Milliy identitetning asosiy (kognitiv, hissiy-emotsional va xulq-atvor) komponentlari va tajriba-sinov ish dasturining mazmunini ishlab chiqishda biz quyidagi xulosalarga kelindi: tajriba-sinov ishimizda milliy identitetni rivojlantirish maqsadli, bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni bo'lib, bu "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining maxsus ishlab chiqilgan mazmuni va ushbu tarkib bilan ishlashni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali milliy o'ziga xoslik tarkibiy qismlarining rivojlanishini ta'minlaydi;

ta'limda milliy identitetni amalga oshirish xususiyatlari individual ijobiy, psixo-fiziologik yoshi xususiyatlari, talabalar va o'qituvchilar o'rtasida amalga oshirilgan tajriba bilan belgilanadi. O'quv jarayonining barcha bosqichlarida belgilangan talablarga muvofiq milliy identitetni rivojlantirishning quyidagi mexanizmlariga ustuvor ahamiyat qaratildi: talabalar uchun ko'p madaniyatli ta'lim muhitini yaratish va yangi mazmun bilan boyitib borish;

talabada o'zining real salohiyatiga ishonchini orttirish;

ta'lim subyektlarining madaniy muloqot "maydoni"da o'zining o'rni va rolini belgilay olishi;

dialogik munosabatlar madaniyatining rivojlanganligi. Talabalarda milliy identitetni rivojlantirishning samaradorligi nafaqat nazariy modelda maqsad va vazifalarni aniq belgilash, tajriba dasturini ishlab chiqish, balki samarali, maqbul kombinatsiyalangan shakl, usul va

vositalarning oqilona tanlab olinishiga bog'liq.

Taqdim etilgan modelning tarkibiy asoslaridan biri sifatida talabalarda milliy identitetni rivojlantirish usullari muhim ahamiyat kasb etib, ularni tanlashda quyidagi qoidalarga asoslanildi: tanlangan usullar talabalarda milliy identitetni rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydi va aniq belgilangan vazifalar orqali milliy qadriyatlarni o'rganish bosqichlariga mos keladi; taklif etilgan o'qitish usullari milliy-ma'naviy mashg'ulotlarda talabalarda milliy identitetni rivojlantirishga xizmat qiladi. Modelni amalga oshirish jarayonini boshqarishda S.I.Arxaevskiy tomonidan taklif etilgan quyidagi bosqichlarga tayanildi: birinchi – nazorat obyektini o'rganish (obyektning joriy holatini aniqlash uchun axborotlarning to'g'riligi va xolisligiga erishish).

Mazkur tadqiqot doirasida talabalarda milliy identitetning rivojlanganlik darajasi uning komponentlarini (kognitiv, hissiy-emotsional va xulq-atvorga doir) o'ziga xos xususiyatlariga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirildi;

ikkinchi – tajriba dasturini ishlab chiqish ("O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanidagi o'quv materiallari mazmunini shaxslararo munosabat, o'qituvchi va talabalarining birgalikdagi samarali faoliyati, talabalarda milliy identitetni rivojlantirishga yo'naltirish);

uchinchi – tajriba dasturini amalga oshirish (talabalarni milliy qadriyatlar, jadidlar merosi haqida axborotlarni mustaqil izlab topishga undash, axborotlarni qayta ishlash va tahlil etish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, talabalarining milliy identitet darajasining ijobiy dinamikasiga erishishni ta'minlash).

Jadidchilar va marifatparvarlarning pedagogik yondashuvlari, o'z davrining ta'lim tizimiga bo'lgan yangi qarashlarini aks ettiradi va bugungi ta'lim tizimida ham o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ularning ta'limdagi yangicha yondashuvlari ilmfan va ma'rifatni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga, yoshlarni zamonaviy bilimlar va mustaqil fikrlashga o'rgatishga qaratilgan edi.

Xulosa

Jadid pedagogikasining asosiy xususiyatlari ilmiy va amaliy bilimlarning muhimligi, milliy

madaniyatni asrabavaylash, tenglik va adolatni ta'minlash hamda erkin fikrlash va tanqidiy qarashlarni rivojlantirish kabi prinsiplar bugungi ta'lim tizimining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Ularning pedagogik goyalari nafaqat o'sha davrda, balki hozirgi kunda ham ta'lim tizimiga yangi qarashlar, innovatsiyalar va o'zgarishlarni kiritishga undaydi. Jadidlarning ta'limdagi ijtimoiy, ilmiy va madaniy yondashuvlari, hozirgi ta'lim tizimi uchun ham muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ularning pedagogik qarashlari va goyalari, yoshlarni nafaqat ilm-fan, balki milliy ma'naviyat va ijtimoiy mas'uliyat bilan birga tarbiyalashning ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi. Jadid pedagogikasining bugungi ta'lim tizimida davom etayotgan ta'siri, uning ilg'or fikrlarini amalga oshirishga intilish orqali kelajakda yanada rivojlanadi.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 92 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // Xalq so'zi, 2017 yil 20 may.
3. Асмолов, А. Г. (2018). Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – Москва: Смысл, 2018. – 528 с
4. Cote, R. E. (2014). The contemporary youth research landscape: Challenging established perspectives. Routledge.
5. Крепаз, М. Л., Риган, Д. (2006). Борьба с расизмом и ксенофобией в Европе: политика и дилеммы. Нью-Йорк: Пэлгрейв Макмиллан.

6. Маргинсон, С., Венде, М. (2007). Высшее образование в глобальном обществе: пример Европейского союза. Лондон: Рутледж.
7. Тай, Тхиам Чай (2016). Моральное и гражданское образование в Сингапуре: критический анализ. Лондон: Рутледж.
8. Йонас, К. Й., Фрей, Д. (ред.) (2003). Идентичность и самость. Гёттинген: Хогрефе.
9. Форст, Р. (2013). Право на обоснование: элементы конструктивистской теории справедливости. Нью-Йорк: Колумбийское университетское издательство.
10. Karimova, S. A. (2017). Talabalarda milliy g'ururni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari. Toshkent: Fan. (98-102.b.)
11. Байбаков, А. В. (2019). Формирование гражданской идентичности молодежи в условиях современного общества. [Автореф. дисс. ... канд. пед. наук]. – Санкт-Петербург, 2019. (S. 40-42, 88-92, 150-155)
12. Архангельский, С. И. (1980). Учебный процесс в высшей школе, его закономерные основы и методы изучения. Москва: Высшая школа. (45-50, 60-65, 75-80 б.)
13. Герасина, Л. Н. (2005). Коммуникативные технологии в педагогической деятельности. Самара: Университет. (120-125 б.)